

6. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики (с изменениями и дополнениями по состоянию на 27.12.2024 г.) URL: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353
7. Уголовный кодекс Республики Таджикистан от 21 мая 1998 года № 574 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 20.06.2024 г.) URL: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397325
8. Уголовный кодекс Украины от 5 апреля 2001 года № 2341-III (с изменениями и дополнениями по состоянию на 05.06.2020 г.). URL: http://continent-online.com/Document/?doc_id=30418109#pos=2633;-45
9. Уголовный кодекс Франции. URL: <https://constitutions.ru/?p=25017>
10. Уголовный Кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 127 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 19.02.2025 г.) URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=36675065
11. Уголовный кодекс Армении (с изменениями и дополнениями по состоянию на 23 декабря 2022 г.). URL: <https://hrlib.kz/document/176585>
12. Уголовный кодекс Республики Беларусь от 9 июля 1999 года № 275-3 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 11.11.2019 г.). URL: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=30414984#pos=2756;-48
13. Уголовный кодекс Японии. URL: <https://constitutions.ru/?p=407>
14. Уголовный кодекс Испании. URL: https://artlibrary2007.narod.ru/kodeks/ispanii_uk.doc
15. Уголовный кодекс Республики Корея. URL: <https://vseokoree.com/vse-o-koree/zakony-i-normativnye-pravovye-akty/ugolovnyj-kodeks-respubliki-koreya>
16. Уголовный кодекс Российской Федерации от 13 июня 1996 года № 63-ФЗ (с изменениями и дополнениями по состоянию на 28.02.2025 г.). URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30397073
17. Уголовное право России. Общая и Особенная части: Учебник / Под ред. д-ра юрид. наук, проф. В.К. Дуюнова. – М., 2008. – С. 520.
18. Л.Е. Чистова. Переработка наркотических средств. ее отличие от их изготовления. / Международный научный журнал «Инновационная наука», 2015, №11. – Б. 199.



GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA ILMIY TADQIQOTLARNING AHAMIYATI



TO'RAYEV

Ilxomjon Esanovich

O'zbekiston Respublikasi

*Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi,
tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy dunyoda giyohvandlik va narkojinoyslarga qarshi kurashishda ilmiy tadqiqotlarning strategik ahamiyati tahlil qilgan. Narkobiznesning globallashuvi va raqamlashuvi sharoitida huquqni muhofaza qilish, tibbiyot, psixologiya va IT sohalarining integratsiyalashuvi zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, yangi turdagi sintetik moddalarni aniqlash, kibermakondagi narkosavdoga qarshi kurashish va ilmiy asoslangan reabilitatsiya usullarini joriy etish bo'yicha qator amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, narkojinoysl, ilmiy tadqiqot, profilaktika, kiberkriminologiya, reabilitatsiya, sintetik narkotiklar.

Аннотация. В статье анализируется стратегическая роль научных исследований в борьбе с наркоманией и наркопреступностью в современном мире. Обосновывается необходимость интеграции правоохранительной деятельности, медицины, психологии и IT-технологий в условиях глобализации и цифровизации наркобизнеса. Выдвинут ряд практических предложений по выявлению новых видов синтетических веществ, противодействию наркоторговле в киберпространстве и внедрению научно обоснованных методов реабилитации.

Ключевые слова: наркомания, наркопреступность, научные исследования, профилактика, киберкриминалогия, реабилитация, синтетические наркотики.

Abstract. This article analyzes the strategic role of scientific research in combating drug addiction and drug-related crimes in the modern world. The author emphasizes the necessity of integrating law enforcement, medicine, psychology, and IT sectors amidst the globalization and digitalization of the drug business. A number of practical proposals are put forward for identifying new types of synthetic substances, countering drug trafficking in cyberspace, and implementing evidence-based rehabilitation methods.

Keywords: Drug addiction, drug crime, scientific research, prevention, cyber-criminology, rehabilitation, synthetic drugs.

Hozirgi globallashayotgan dunyoda insoniyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan giyohvandlik va u bilan bog'liq transmilliy jinoyatchilik alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mashhur sotsiolog Manuel Kastels ta'kidlaganidek, "global jinoiy tarmoqlar davlat chegaralarini mensimaydi va eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, an'anaviy nazorat tizimlaridan ustun kelishga intiladi" [1].

Shu bois, giyohvandlik muammosini kompleks jarayon sifatida tadqiq etish zarurati yuzaga kel-

moqda. Bunda tibbiyot, psixologiya va yurisprudensiya fanlarining interdisciplinar integratsiyasi muhim. Xususan, amerikalik psixiatr, neyrobiolog, AQSH Milliy sog'liqni saqlash institutlari tarkibidagi Narkotiklarni suiiste'mol qilish bo'yicha milliy institut (ingl. National Institute on Drug Abuse – NIDA) direktori, tibbiyot fanlari doktori Nora Dolores Volkova ilmiy izlanishlarida isbotlaganidek, "qaramlik – bu irodasizlik emas, balki miyaning mukofot tizimidagi chuqur kimyoviy o'zgarishlar natijasida kelib chiqadigan surunkali

kasallik” [2]. Bu qarash bizga davolash va profilaktikaga yangicha – biopsixosotsial model asosida yondashish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlarning muhim vazifasi “aysberg effekti” doirasida qolib ketayotgan latent holatlarni aniqlashdir. Kriminolog olim Edvin Saterlend o‘z nazariyalarida jinoyatchilikning ijtimoiy o‘rganilish mexanizmiga e‘tibor qaratib, profilaktikada “muhit omili” birinchi darajali ekanligini asoslab bergan [3].

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur‘atlarda rivojlanishi, transportlogistika tarmoqlarining kengayishi va xalqaro aloqalarning chuqurlashuvi natijasida narkobiznes faoliyati yangi, institutsional jihatdan murakkab va yuqori darajada moslashuvchan shakllarga ega bo‘lmoqda. Mazkur holat giyohvandlik muammosini an‘anaviy huquqni muhofaza qilish chora-tadbirlari doirasida hal etish imkoniyatlarini cheklab, uni ko‘pqirrali, tizimli va ilmiy yondashuvni talab qiluvchi kompleks jarayon sifatida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, ushbu sohada samarali strategiyalarni ishlab chiqish tibbiyot (*addiktologiya va neyrobiologiya*), psixologiya (*xulq-atvor omillari va qaramlik mexanizmlari*), sotsiologiya (*ijtimoiy muhit va xavf omillari*) hamda yurisprudensiya (*huquqiy tartibga solish va jinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmlari*) kabi fanlar o‘rtasidagi **interdissiplinar integratsiyani** taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, giyohvandlik va narkojinoyatchilikka qarshi kurashishda ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish, empirik ma‘lumotlarga asoslangan tahlillarni kengaytirish, profilaktika va reabilitatsiya mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuning uchun mazkur illatga qarshi kurashish faqat reaktiv chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, balki tizimli, ilmiy asoslangan va ko‘p tarmoqli (*interdissiplinar*) yondashuvni taqozo etadi. Zamonaviy yondashuvlarda mazkur muammoga murakkab ijtimoiy-psixologik va biotibbiyot fenomeni sifatida qaralib, uning sabab va oqibatlari chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarning **birinchi ustuvor vazifasi** mavjud vaziyatni xolis baholash, uning rivojlanish dinamikasini aniqlash hamda ilmiy asoslangan prognozlar ishlab chiqishdan iborat. Amaliyot shuni

ko‘rsatadiki, rasmiy statistik ma‘lumotlar ko‘p hollarda “aysberg effekti” doirasida faqat ro‘yxatga olingan jinoyatlarni aks ettiradi, xolos. Shu bois, latent (*yashirin*) giyohvandlik holatlarini aniqlash maqsadida anonim so‘rovnomalarni, empirik kuza-tuvlar, tibbiy-biologik tahlil va sotsiologik monitoring usullaridan kompleks foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur usullar orqali aholi, ayniqsa, yoshlar orasida giyohvandlik iste‘moli ko‘lami, uning ijtimoiy-demografik xususiyatlari, yangi psixoaktiv moddalar tarqalish tendensiyalari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda “*dizayner giyohvandlik vositalari*” sifatida ta‘riflanuvchi sintetik kimyoviy moddalarning keng tarqalishi mazkur sohadagi ilmiy tadqiqot faoliyatining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ushbu moddalarning kimyoviy tarkibini identifikatsiya qilish, ularning inson organizmiga ta‘sirini (*farmakodinamika va farmakokinetika nuqtai nazaridan*) o‘rganish hamda ularni tezkor ravishda nazorat qilinadigan moddalar ro‘yxatiga kiritish jarayonlari yuqori ilmiy salohiyat va laborator infratuzilmani talab qiladi.

Ikkinchidan, psixologik va pedagogik tadqiqotlar profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ilmiy dalillar shuni ko‘rsatadiki, an‘anaviy ogohlantirish yoki qo‘rqitishga asoslangan yondashuvlar har doim ham barqaror natija bermaydi. Aksincha, yoshlar auditoriyasi bilan ishlashda interaktiv ta‘lim texnologiyalari, tengdoshlar orqali ta‘sir o‘tkazish (*peer-to-peer approach*), ijtimoiy roliklar, keys-stadi usulidagi treninglar va real hayotiy misollarga asoslangan profilaktik dasturlar ancha samarali hisoblanadi. Bu esa profilaktika tizimini ilmiy-pedagogik asosda qayta ko‘rib chiqish zaruratini taqozo etadi.

Shu bilan birga, mazkur illatga qarshi samarali kurashish kompleks va ko‘p darajali yondashuvni talab etadi. U faqat giyohvandlik moddalari noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish va huquqbuzarlarni jazolash bilan cheklanib qolmasligi kerak. Balki profilaktika, erta aniqlash, tibbiy-psixologik reabilitatsiya, ijtimoiy moslashtirish va qayta integratsiya qilish mexanizmlarini qamrab olgan yaxlit tizimni shakllantirishi zarur. Faqat shu tarzda ilmiy asoslangan, barqaror va uzoq muddatli natijalarga erishish mumkin.

Profilaktika chora-tadbirlari giyohvandlikka qarshi kurashish tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ularni ilmiy-metodik asosda tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, giyohvandlik moddalarining inson salomatligiga, ruhiy holati va ijtimoiy hayotiga yetkazadigan salbiy ta‘siri haqida aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng qamrovli va tizimli axborot-ta‘lim ishlarini olib borish zarur. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, barqaror salbiy munosabatni shakllantirish faqat ma‘lumot berish bilan cheklanmasdan, balki shaxsning qadriyatlar tizimi, hayotiy ko‘nikmalari va ijtimoiy mas‘uliyatini rivojlantirish bilan uyg‘un holda amalga oshirilganda yuqori samara beradi.

Shu bilan birga, giyohvandlikka chalingan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilish masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Bu jarayon tibbiy yordam, psixoterapevtik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy reabilitatsiya choralari o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirilishi lozim. Zamonaviy yondashuvlarda giyohvandlik surunkali, retsidivga moyil kasallik sifatida baholanib, uni davolashda biopsixosotsial model asosida kompleks terapevtik strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

Mazkur yo‘nalishda davlat siyosati doirasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrda “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonining qabul qilinishi sohadagi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish va muvofiq-lashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Ushbu Farmon asosida “*Giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo‘yicha 2025–2026-yillarga mo‘ljallangan kompleks amaliy harakatlar milliy dasturi*”ning ishlab chiqilishi profilaktika, davolash va reabilitatsiya jarayonlarini integratsiyalashtirish holda amalga oshirish imkonini bermoqda [4].

Tibbiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlar giyohvandlikni neyrobiologik mexanizmlar bilan bog‘liq bo‘lgan surunkali kasallik sifatida talqin etadi. Zamonaviy neyrobiologiya doirasida giyohvandlik moddalarining inson miyasidagi mukofot tizimiga ta‘siri, neyromediatorlar faoliyatidagi o‘zgarishlar va qaramlik shakllanishining biologik asoslari

chuqur o‘rganilmoqda. Bu esa dori vositalari bilan davolash, kognitiv-xulq-atvor psixoterapiya va ijtimoiy reabilitatsiyani qamrab olgan kompleks davolash modellarini ishlab chiqish imkonini bermoqda.

Reabilitatsiya markazlari faoliyati faqat organizmni detoksikatsiya qilish bilan cheklanmasdan, balki shaxsning ijtimoiy funksiyalarini tiklash, mehnat faoliyatiga jalb etish va jamiyatga moslashuvini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Chunki amaliyot shuni ko‘rsatadiki, davolash jarayonining eng muhim bosqichi – qayta iste‘mol va qayta jinoyatchilik holatlarining oldini olishdir.

Kriminologik tadqiqotlar esa narkojinoyatchilikning tuzilmasi, geografiyasi va rivojlanish dinamikasini tahlil qilish orqali uning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy statistik modellashtirish, risk-tahlil va prognozlash usullari orqali jinoyatchilikning ehtimoliy o‘sish nuqtalari aniqlanib, maqsadli profilaktik va tezkor huquqiy choralarni ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida narkotik vositalar savdosining Internet tarmoqlari va “yashirin segmentlar” (darknet) orqali amalga oshirilayotgani kiberkriminologiya doirasida alohida tadqiq etishni talab qilmoqda.

Xalqaro miqyosda ham giyohvandlikka qarshi kurashishda ilmiy tadqiqotlar strategik ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy tayanch omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, **United Nation Office on Drugs and Crime** tomonidan har yili e‘lon qilinadigan Jahon giyohvandlik hisobotlari global miqyosdagi tendensiyalarni ilmiy-statistik tahlil qilishga xizmat qiladi. Mazkur hisobotlar giyohvandlik moddalari ishlab chiqarilishi, tarqalishi, iste‘moli va ular bilan bog‘liq jinoyatchilik holatlarining dinamikasini kompleks o‘rganish imkonini beradi [5]. Shu asosda davlatlar o‘z milliy strategiyalarini ilmiy dalillarga tayangan holda takomillashtiradi, shuningdek, transmilliy tahdidlarga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlaydi. Zero, narkotrafik hududiy chegaralar bilan cheklanmaydigan, yuqori darajada uyushgan va global xarakterga ega jinoiy faoliyat turi hisoblanadi.

Iqtisodiy tadqiqotlar ham mazkur muammo-ni mohiyatini chuqur anglashda muhim o‘rin tutadi. Narkobiznes katta hajmdagi noqonuniy

moliyaviy resurslarni shakllantirib, ular orqali korrupsiya, “pul yuvish” (money laundering) va boshqa og‘ir turdagi jinoyatlarni rag‘batlantiradi. Ilmiy-iqtisodiy tahlillar noqonuniy moliyaviy oqimlarni aniqlash, ularning harakatlanish mexanizmlarini o‘rganish va samarali moliyaviy nazorat instrumentlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy va xalqaro darajada iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, giyohvandlikning jamiyatga yetkazayotgan iqtisodiy zararini baholash ham ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, sog‘liqni saqlash tizimiga tushayotgan qo‘shimcha yuklama (davolash va reabilitatsiya xarajatlari), mehnat unumdorligining pasayishi, ishsizlikning ortishi, shuningdek, jinoyatchilik bilan bog‘liq iqtisodiy yo‘qotishlar kompleks hisob-kitoblar asosida aniqlanadi. Bunday ilmiy asoslangan hisob-kitoblar muammoning haqiqiy ko‘lami va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini aniq raqamlar orqali ifodalash imkonini beradi hamda davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishlarni belgilashda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Huquqiy tadqiqotlar giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish tizimida alohida o‘rin tutib, mazkur sohadagi davlat siyosatini ilmiy asosda shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, qonunchilikni takomillashtirish, jazo choralari individuallashtirish, shuningdek, jazolashdan ko‘ra reabilitatsiyaga yo‘naltirilgan alternativ huquqiy mexanizmlarni joriy etish ilmiy-huquqiy tahlillarni talab etadi. Zamonaviy kriminologik yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim holatlarda jazolash choralari kamaytirish va davolashga yo‘naltirish ijtimoiy samaradorlik nuqtai nazaridan yuqori natija beradi.

Masalan, Germaniya qonunlariga ko‘ra, giyohvandlik moddalarini ta‘sirida bo‘lgan holda ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan shaxslar, agar ixtiyoriy ravishda giyohvandlikdan davolanishga rozi bo‘lsalar, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishlari mumkin (*Betäubungsmittelgesetz (BtMG)*, § 35, 37).

Xitoy jinoyat qonunchiligida giyohvandlik moddalarini bilan bog‘liq jinoyatlar uchun juda qat‘iy jazo choralari belgilangan. Jumladan, yirik miqdordagi narkotik moddalar kontrabandasi uchun uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish, umrbod qamoq

yoki hatto o‘lim jazosi qo‘llanilishi mumkin. Bu esa mazkur davlatda profilaktikaning repressiv (qattiq jazoga asoslangan) modeli ustuvor ekanligini ko‘rsatadi (*Criminal Law of the People’s Republic of China, Art. 347; UNODC World Drug Report.*).

Islandiya modeli (“Planet Youth”)ga nazar tashlasak. 1998-yillarda Islandiyada 15–16 yoshli o‘smirlar orasida spirtli ichimliklar va giyohvandlik iste‘moli darajasi Yevropa bo‘yicha eng yuqori (42%) ko‘rsatkichda edi. Islandiya hukumati faqat taqiqlash va qamash siyosatidan voz kechib, mahalliy hamjamiyat, maktab va ota-onalar hamkorligiga asoslangan profilaktika modelini joriy etdi. O‘smirlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun sport va san‘at infratuzilmasi davlat tomonidan keng moliyalashtirildi, ota-onalar bilan qat‘iy kelishuvlar (masalan, bolalarning kechki payt ko‘chada yurmaslik qoidasi) o‘rnatildi. Natijada, 20 yil ichida bu ko‘rsatkich 42 % dan 5 % ga tushdi [6].

Ma‘lumot uchun: Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan loyiha doirasida o‘tkazilgan so‘rovnomada ham 1 080 nafar bola aynan “sport va to‘garaklarga jalb qilish”ni giyohvandlikning oldini olishdagi eng samarali yo‘l deb ko‘rsatgani, bu ushbu modelning yurtimiz uchun ham relevantligini tasdiqlaydi.

Portugaliya modeli (Dekriminalizatsiya siyosati). 2001-yilda Portugaliya davlati dunyoda birinchilardan bo‘lib giyohvandlik moddalarini shaxsiy iste‘mol uchun saqlaganlikni jinoiy emas, balki ma‘muriy huquqbuzarlik va sog‘liqni saqlash tizimiga oid tibbiy muammo sifatida baholash siyosatiga o‘tdi. Mazkur davlatning asosiy e‘tibori va moliyaviy resurslari jazolashga emas, balki davolashga, ijtimoiy reabilitatsiyaga va zararni kamaytirishga qaratildi. Natijada, mamlakatda giyohvandlikdan o‘lim holatlari 80% ga kamaydi, OIV (VICH) yuqishi keskin pasaydi, politsiya va sud tizimi esa o‘zlarining asosiy kuchlarini mayda iste‘molchilarni qamashga emas, balki yirik narkokartellar va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashga qarata oldi.

Bu tajriba shuni o‘rgatadiki, kasallikka chalingan “iste‘molchi-jinoyatchi” bilan g‘arazli niyatdagi “tarqatuvchi-jinoyatchi”ni bir xil jazolash tizimi samarasizdir. Balki, iste‘molchiga jazodan ko‘ra ko‘proq tibbiy-ijtimoiy yordam zarur.

AQSH va Niderlandiya kabi davlatlarning tajribasiga nazar tashlasak. Xususan, AQSHda

maktablarga mo‘ljallangan “Life Skills Training” (Hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish) dasturlari orqali o‘quvchilarda stressni boshqarish va salbiy takliflarga ongli ravishda rad javobini berish ko‘nikmalari o‘rgatilmoqda, bu esa narkotik iste‘molini 30–50 %ga kamaytirdi. Niderlandiyada esa yoshlarga giyohvandlik moddalarining tarkibi va xavfi haqida ochiq, ilmiy va obyektiv axborot berish orqali ularda xavfli moddalarga nisbatan ongli immunitet shakllantirilmogda.

Bu tajribalarni qiyosiy-huquqiy tahlil qilish orqali eng maqbul mexanizmlarni ishlab chiqish mumkin. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi mazkur sohada ilmiy monitoring va tahlilning yangi usullarini joriy etish imkonini bermogda. Katta ma‘lumotlar (big data) tahlili, sun‘iy intellekt algoritmlari va geoaxborot tizimlari (GIS) orqali narkojinoyatlarning hududiy tarqalish xaritalarini shakllantirish, xavfli nuqtalarni aniqlash va tezkor profilaktik choralar ko‘rish mumkin. Bu esa an‘anaviy usullarga nisbatan aniqlik, tezkorlik va samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda ilmiy tadqiqotlar strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ular muammoning mohiyatini chuqur anglash, uning sabab va oqibatlarini aniqlash hamda samarali profilaktika, davolash va huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Giyohvandlikka qarshi kurashish faqatgina ma‘muriy yoki jismoniy ta‘sir choralari emas, balki keng qamrovli ilmiy yondashuvga asoslangan murakkab jarayondir. Ilm-fan orqali biz ushbu illatning ildiz omillarini aniqlab, unga maqsadli va samarali ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Faqatgina davlat organlari, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi, resurslar va bilimlarning integratsiyasi orqali sog‘lom va xavfsiz jamiyatni shakllantirish mumkin.

Ilmiy asoslanmagan, fragmentar yondashuvlar qisqa muddatli natija berishi mumkin, biroq barqaror va uzoq muddatli ijobiy o‘zgarishlarga erishish faqat ilmiy asoslangan, tizimli siyosat va amaliyot orqali ta‘minlanadi.

Yuqorida bayon etilgan tahlillardan kelib chiqib, sohadagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha quyidagilar taklif etiladi.

Birinchidan, giyohvandlikning yashirin ko‘lamini xolis baholash maqsadida nafaqat rasmiy statistikaga, balki “oqova suvlar”ni kimyoviy tahlil qilish (wastewater analysis) va muntazam anonim so‘rovnomalar kabi zamonaviy ilmiy metodlarga asoslangan Milliy monitoring tizimini yaratish zarur. Bu jarayonda sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, narkojinoyatlar eng ko‘p sodir etilishi mumkin bo‘lgan hududlarning (hotspots) elektron xaritasini shakllantirish va resurslarni maqsadli yo‘naltirish lozim.

Ikkinchidan, yangi turdagi “dizaynerlik narkotiklari” va sintetik moddalarning paydo bo‘lish tezligini inobatga olib, ularni tezkor aniqlash va 24 soat ichida taqiqlangan moddalar ro‘yxatiga kiritish imkonini beruvchi soddalashtirilgan huquqiy mexanizm hamda ekspress-laboratoriyalar tarmog‘ini kengaytirish zarur. Shu bilan birga, kibermakondagi narkosavdoga qarshi kurashish uchun kiberkriminologiya yo‘nalishida alohida ilmiy bo‘linma tashkil etish, ular yordamida DarkNet va kriptovalyuta tranzaksiyalarini kuzatishning milliy dasturiy ta‘minotlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, profilaktika ishlarida eskirgan “qo‘rqitish” usullaridan voz kechib, neyropsixologiya va neyromarketing yutuqlariga asoslangan, yoshlarning qiziqishlari va ijtimoiy tarmoqlardagi xulq-atvoriga moslashtirilgan interaktiv media-mahsulotlarni yaratish lozim. Tibbiy reabilitatsiya sohasida esa giyohvandlikni faqat detoksikatsiya qilish emas, balki shaxsni jamiyatga qaytarish (resotsializatsiya) zanjirini ilmiy asoslangan standartlar darajasiga ko‘tarish, ayrim hollarda og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan shaxslar uchun “jazo o‘rniga majburiy davolash” modelini tajriba tariqasida joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Tizimli yondashuv zaruriyati, ya‘ni Islandiya va Portugaliya tajribalari shuni ko‘rsatadiki, faqat jazolash (*repressiya*) siyosati retsidivni kamaytirishda samarasizdir. Iste‘molchi-jinoyatchilarni *tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya* qilish va yoshlarning bo‘sh vaqtini tizimli band qilish (*sport va san‘at orqali*) jamiyatning kriminologik immunitetini mustahkamlashning eng maqbul yo‘lidir.


Nihoyat, ushbu yo‘nalishdagi barcha ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtirish uchun Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda huquqni

muhofoza qilish organlari o'rtasida doimiy platforma yaratish, sohaga oid dissertatsiya va tadqiqot mavzularini aynan narkobiznesning yangi shakllariga qarshi kurashishning amaliy yechim-

lariga yo'naltirish zarur. Faqatgina mana shunday kompleks va ilmiy asoslangan yondashuv orqali jamiyatni narkotahdidlardan samarali himoya qilish mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. Castells, M. (2010). The End of Millennium. The Information Age: Economy, Society, and Culture. Oxford: Wiley-Blackwell.
2. Volkow, N. D., & Morales, M. (2015). The Brain on Drugs: From Reward to Addiction. Cell, 162(4), 712-725.
3. Sutherland, E. H. (1947). Principles of Criminology. Philadelphia: Lippincott.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 noyabrdagi PF-207-son "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
5. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). World Drug Report, 2025. – Vienna: UNODC Research, 2025.
6. Kristjánsson Á. L., et al. Adolescent substance use prevention: school-based and community-based approaches in Iceland. Child and Adolescent Psychiatric Clinics of North America, 25(3), 437–452.



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI



MIRZAYEV
Jahongir Umirzoqovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim



ABDUXAMIDOV
Gayrat Zaynishevich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti,
ilmiy xodim-tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada ichki ishlar organlari faoliyatida strategik rejalashtirishning mazmun-mohiyati, uning huquq-tartibotni ta'minlashda samaradorlikka ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv tizimida strategik rejalashtirishning ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, xavfsizlikni ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi o'rni yoritilgan. Strategik rejalashtirishning asosiy tamoyillari, vazifalari hamda uni amalga oshirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: strategik rejalashtirish, ichki ishlar organlari, boshqaruv, jinoyatchilik profilaktikasi, xavfsizlik, samaradorlik, davlat boshqaruvi, chora-tadbirlar, ilmiy-tadqiqot, tahlil.

Аннотация. В статье проанализированы сущность стратегического планирования в деятельности органов внутренних дел, его роль в обеспечении правопорядка и влияние на эффективность деятельности. Также освещено значение стратегического планирования в современной системе управления, его роль в координации деятельности органов внутренних дел, обеспечении безопасности и борьбе с преступностью. Научно обоснованы основные принципы, задачи и механизмы реализации стратегического планирования.

Ключевые слова: стратегическое планирование, органы внутренних дел, управление, профилактика преступности, безопасность, эффективность, государственное управление, меры, научные исследования, анализ.

Abstract. The article analyzes the essence of strategic planning in the activities of internal affairs bodies, its role in ensuring law and order, and its impact on operational effectiveness. It also highlights the importance of strategic planning in the modern management system, its role in coordinating the activities of internal affairs bodies, ensuring security, and combating crime. The article scientifically substantiates the main principles, tasks, and implementation mechanisms of strategic planning.

Keywords: strategic planning, internal affairs bodies, management, crime prevention, security, effectiveness, public administration, measures, scientific research, analysis.